

“YANGILANGAN KONSTITUTSIYADA SUD HOKIMIYATI”

Q`oqon davlat Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti
huquq fakulteti o`qituvchisi Xujamatova Xayotxon Mansurovna

Hasanov Muhtorjon Qahramonjon o`g`li

Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo`nalishi II-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi tahrirdagi Konstitutsiyadagi bir qator islohatlar shu jumaladan sud hokimiyati va ularning vazifalari haqida qisqacha yoritilib berilgan.

Kalit so`zlar: konstitutsiya, sud hokimiyati, sud, prezident, adolat, “My.sud.uz” elektron platformasi.

«СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ В ПЕРЕСМОТРЕННОЙ КОНСТИТУЦИИ»

Факультет педагогики и социальных наук Кокандского
государственного университета

Преподаватель юридического факультета Хузаматова Хаётхон

Мансуровна

Гасанов Мухторджон Кахрамонджон оглы, студент 2 курса

исторического факультета педагогического и социального факультета

Аннотация. В этой статье кратко описывается ряд реформ в Конституции в новой редакции, касающихся судебной системы и ее функций.

Ключевые слова: Конституция, судебная власть, суд, президент, справедливость, “My.sud.uz” электронная платформа.

“JUDICIAL POWER IN THE UPDATED CONSTITUTION”

Qoqon State Faculty of Pedagogy and Social Sciences

Lecturer of the Faculty of Law Khuzamatova Khayotkhon Mansurovna

Hasanov Mukhtorjon Kahramonjon oglu Faculty of Pedagogy and Social

Sciences, History Department, 2nd year student

Abstract. In this article, a number of reforms in the Constitution in the new edition are briefly covered about the judiciary and their functions.

Key words: Constitution, Judiciary, Court, President, Justice, “My.sud.uz” electronic platform.

KIRISH

Bugungi kunda mustaqillik yillaridan to hozirgi kunga qadar mamlakatimizda tubdan yangicha islohotlar olib borilmoqda. Islohotlar davomida bajarilayotgan vazifalarni mamlakatning rivojlanish yo‘lini yangi bir bosqichga ko‘tarish uchun amalga oshirilayotgan keng qamrovli o‘zgarishlar uchun deb aytaolmiz. Bular xalq farovonligini ta‘minlash, iqtisodiy barqarorlikni oshirish va davlat boshqaruvining shaffofligini mustahkamlashni maqsad qilib qo‘yilganligi yaqqol dalolatdir. Hukumat zamon talablariga mos yangi qonunlar va tartiblarni joriy etib, har bir fuqaroga adolatli va erkin yashash imkoniyatini yaratish uchun aholi bilan muntazam ravishda suhbatlar tashkillanmoqda va shu orqali ulardagi muammolarni hamda takliflarni o‘rganmoqda. Shuning uchun ham har bir fuqaro hayoti davomida konstitutsiyani o‘rganmog‘i zarur. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning: “Konstitutsiyamiz har bir fuqaroning ongi va qalbidan chuqur joy olgan, ularning huquq va erkinliklarini to‘liq kafolatlaydigan haqiqiy hayot qomusiga aylanmog‘i lozim¹” — degan iqtibosli so‘zlarini aytib o‘tishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mamlakatimiz taraqqiyoti, jamiyatimizning rivoji hamda inson huquq va erkinliklarini ta‘minlashdagi ahamiyati beqiyosdir. Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilgan inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlashda, jamiyatda qonuniylik va sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlashda alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122-moddasida sudyalarning mustaqil ekanligi, faqat qonunga bo‘ysunishlari, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi va bunday

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Konstitutsiyasining 27-yilligi tadbiri nutqidan.

aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi kabi muhim normalar mustahkamlab qo'yilgan.

Ta'kidlash joizki, sudyalarning mustaqil va faqat qonunga bo'ysungan holda ish yuritishlarining konstitutsiya darajasida kafolatlanishini asosiy sabablaridan biri - sud hokimiyatiga boshqa hech qaysi organ vakolatiga taalluqli bo'lmagan huquq - odil sudlovni amalga oshirish huquqi berilganligi bilan izohlanadi. Zero, mamlakatimiz hayotida, fuqarolarimizning huquq va erkinliklarini to'liq ta'minlanishiga erishishda odil sudlovning ahamiyati beqiyosdir. Odil sudlov jamiyat hayotida, jamiyat a'zolarini huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirishda, insonlarni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda odil sudlov har qaysi davrlarda ham ulug'langanligini, qadrlanganligini hamda insonlar unga intilib yashaganliklarini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Xususan, rim faylasuflari "Pereat mundus et fiat justicia", ya'ni "mayli dunyo barbod bo'lsin, lekin odil sudlov qaror topsin" deb ta'kidlaganliklari bejiz emas (1). Rim faylasuf-larining mazkur mumtoz shiorlari bir qarashda mubolag'adan iborat bo'lsa-da, lekin ular odil sudlovga shu qadar yuqori baho beradilar.

ASOSIY QISM

Istiqlolning dastlabki yillarida Konstitutsiyada nazarda tutilgan sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi tamoyilini amalga oshirishga qaratilgan qator qonunlarimiz qabul qilindi. 1994 yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksi, Jinoyat protsessual kodeksi, Ma'muriy javob-garlik to'g'risidagi kodeks hamda 1997 yilda qabul qilingan Fuqarolik protsessual va Xo'jalik protsessual kodekslarini, "Sudlar to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmon va qarorlari va Hukumat qarorlarini keltirish mumkin.

Biroq mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda

tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda edi. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratilgan mutlaqo yangi bosqichni boshlanishini hayotiy zaruratga aylantirdi².

Bugungi kunda yurtimizda qisqa vaqt ichida ya'ni o'z milliy mustaqilligimizni qo'lga kiritganimizdan so'ng, mutlaqo yangicha va o'ziga xos islohotlar amalga oshirilayotganini, ular to'liq ravishda joriy etilayotganini aytishimizga to'la haqqimiz bor. Bunday o'zgarishlarning asosiy maqsadi fuqarolarni qonun oldida tenglashtirish, insonparvarlikni, adolatni va qonun ustuvorligini ta'minlashga yo'naltirilgan harakatlardir.

Shu borada, Prezidentimizning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan navbatdagi Murojaatnomasida, yurtimizda qonun ustuvorligini mustahkamlash va sud-huquq tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib, erishilgan yutuqlar hamda kelajakdagi vazifalar haqida so'zlab o'tganligi ham bunday islohotlarning muhimligini yanada ta'kidlaydi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, so'nggi to'rt yil mobaynida sud-huquq sohasini isloh qilish yo'lida 40 dan ziyod qonun, farmon va qarorlar qabul qilingan. Adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashda sud hokimiyatining ulkan roli mavjudligi, shuningdek, bu borada amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlar hali ko'p ekanligi – bu, albatta, zamonning o'zidan kelib chiqqan ehtiyojdir.

O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati tizimi qonun chiqaruvchi (Oliy Majlis), ijro etuvchi (Vazirlar Mahkamasi) va sud hokimiyatlariga bo'linish prinsipi asosida tashkil etilgan. Shu sababli, sud hokimiyati davlat hokimiyatining mustaqil bir bo'lagi sifatida alohida o'rin egallaydi.

Mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda sud hokimiyatining huquqiy maqomini mustahkamlash, uning faoliyatini yanada demokratlashtirish, shuningdek, sud tizimining mas'uliyatini va mustaqilligini

² Mamasiddiqov M.M., yu.f.d., professor. Sud hokimiyati mustaqilligining konstitutsiyaviy asoslari

oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu chora-tadbirlar sud tizimining samarali ishlashini ta'minlash va fuqarolarning adolatli sud hukmiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolar va tadbirkorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustahkam himoya qilish, davlat hokimiyatining muhim tarmog'i bo'lgan sud tizimi mustaqilligini ta'minlash — mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy va muhim yo'nalishlaridan biridir. Mustaqil, oshkora va shaffof sud tizimini barpo etish, shuningdek, xorijiy tajribalardan foydalangan holda institutsional islohotlarni amalga oshirish hozirda davlat siyosatining eng dolzarb ustuvor vazifasiga aylangan³. Ayniqsa, odil sudlov jarayonida ochiqlikni ta'minlash, jamoatchilik mexanizmlarini joriy etish hamda sud hukmlarini qabul qilishda insonparvarlik tamoyillarining amal qilishi, aholi huquqlari va manfaatlarini qonuniy himoya qilishning mustahkam kafolati bo'ladi.

Sud (slavyanacha so'z bo'lib, "ish" degan ma'noni anglatadi) — odil sudlovni amalga oshiruvchi, davlat organi bo'lib, muayyan davlatning qonunlariga asoslanib, protsessual tartibda jinoiy, fuqarolik, ma'muriy va boshqa turdagi ishlarni ko'rib chiqadi. U, shuningdek, shaxslar o'rtasidagi, davlat idoralari, korxonalar, muassasalar, tashkilot ma'muriyatlari hamda jamoat birlashmalari o'rtasidagi mulkiy va nomulkiy nizolarni, qonunbuzarliklarni hal etadi. Sud fuqarolarning huquq va erkinliklarini, shuningdek, yuridik shaxslar, ya'ni turli korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning qonun bilan himoyalangan manfaatlarini himoya qiladi. Yangilangan Konstitutsiyada sud tizimiga bir qator muhim o'zgarishlar kiritilgan.

Birinchiidan, avvalgi tahrirda sudlar, masalan, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va iqtisodiy sudlar aniq nomlanib, ularning vazifalari belgilangan edi. Yangi tahrirda esa sud tizimi tashkil etilishi qonunga havola qilingan. Bu yondashuv tizimning zamon talablari asosida moslashuvchan bo'lishini ta'minlaydi. Masalan,

³ Sud va huquqni muhofa qiluvchi organlar darslik. Toshkent 2020.

kelajakda yangi turdagi sudlar tashkil etilishi zarurati yuzaga kelsa, bu jarayon qonun darajasida amalga oshirilishi mumkin.

Ikkinchidan, eski tahrirda Konstitutsiyaviy sudning vazifalari juda keng boʻlib, u bir qator qonunlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini nazorat qilardi. Yangi tahrirda esa fuqarolar va tashkilotlar Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega boʻlishdi. Misol uchun, agar fuqaro boshqa sudlarda oʻz huquqlarini tiklasa, bevosita Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish imkoniyatiga ega boʻladi. Uchunchidan, avvalgi tahrirda Oliy sud barcha sudlar ustidan nazorat qiluvchi va uning qarorlari qatʼiy boʻlgan organ sifatida koʻrsatilgan edi. Yangi tahrirda esa Oliy sud raisi va uning oʻrinbosarlari Prezident taqdimiga binoan Senat tomonidan besh yillik muddatga saylanadi. Shu bilan birga, bir shaxs ushbu lavozimda ketma-ket ikki muddatdan ortiq faoliyat yurita olmaydi. Bu esa boshqaruv tizimida yangilik va adolatlilikni taʼminlashga yoʻnaltirilgan muhim qadamdir.

Sud tizimida gender tenglikni taʼminlash masalasiga katta ahamiyat berilmoqda. Ayol sudyalarni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan turli tadbirlar natijasida sud tizimidagi ayol sudyalar soni oʻsib bormoqda⁴. Misol uchun, 2019-yilda sud tizimida faqat 149 nafar ayol sudya faoliyat yuritgan boʻlsa, 2020-yilda bu raqam 157 nafarga yetdi. 2021-yilning birinchi choragida esa, jami 1300 nafar sudyadan 199 nafari ayollar boʻlib, bu umumiy tarkibning 15,3 foizini tashkil etdi. Ayniqsa, Oliy sudda faoliyat yuritayotgan sudyalar orasida ayollar ulushi 31,25 foizni tashkil etib, bu sud tizimida gender tenglikning tobora yaxshilanayotganini koʻrsatadi⁵.

Mamlakatimizda fuqarolarning sudlarga murojaat qilish jarayonini soddalashtirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan **“Adolat.uz”** elektron platformasi joriy etildi. Ushbu onlayn portal orqali fuqarolar oʻz ariza, taklif yoki shikoyatlarini istalgan sudga elektron shaklda yuborishlari

⁴ Oʻzbekiston Respublikasining qonuni “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish munosabati bilan oʻzbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida” Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2012 y., 38-son, 433-modda.

⁵ Inagamova M.M Oʻzbekiston Respublikasi yangi konstitutsiyasida ayol huquqlari himoyasining ayrim jihatlari // yangi Oʻzbekistonning yangi konstitutiya: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi toʻplami / Oʻzbekiston Respublikasi IIB malaka oshirish instituti, 2023 yil 103-106 b.

mumkin. Platformada sudga murojaat qilish uchun kerakli namunaviy hujjatlar mavjud bo‘lib, ular fuqarolarga bepul va interaktiv tarzda taqdim etiladi. Bunday yondashuv boshqa mamlakatlardagi sud tizimlaridan farq qilishi bilan ahamiyatli. Misol uchun, agar fuqaro sudga murojaat qilishni bilmasa, u namunaviy hujjatlardan foydalanib, o‘z shikoyatini yoki talabnomasini to‘g‘ri rasmiylashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” farmoni mazkur sohadagi davlat siyosatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarib, quyidagi uchta asosiy ustuvor yo‘nalishlarni belgilab berdi:

- Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash;
- Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish;
- Odil sudlovga erishish darajasini oshirish⁶.

O‘zbekistonda adolatli sudlov faqat sud idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Sudyalar o‘z mustaqilliklarini saqlab, faqat qonunlar hukmiga bo‘ysunadilar. Sudyalar tomonidan adolatli sudlovni amalga oshirishda har qanday tashqi aralashuv taqiqlanadi va bunday aralashuv qonuniy javobgarlikka olib keladi. Shuningdek, Konstitutsiyamizning 111 – moddasida “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi Sudyalar hamjamiyatining organi bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsipga rioya etilishini ta‘minlashga ko‘maklashadi. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashini tashkil etish va uning faoliyatini tartibga solish qonun bilan belgilanadi” – deb qayd qilingan.

Hozirgi kunda yurtimizda qonun chiqarish va sud-huquq tizimini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli tadbirlar samarali amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada esa, sud-huquq tizimini takomillashtirish borasida dunyo

⁶ <https://www.gazeta.uz/oz/2016/10/21/sud>

miqyosida mavjud tajribalarga va ularni O‘zbekistonda joriy etish istiqbollariga to‘xtalmoqchiman. Bir nechta ilg‘or davlatlar, xususan, Buyuk Britaniya, Birlashgan Arab Amirliklari, Germaniya, Fransiya va Amerika Qo‘shma Shtatlari qonunchiligi hamda sud tizimi o‘rganilib, milliy sud-huquq tizimimizni yanada rivojlantirishga oid foydali takliflar ilgari surilmoqda.

Masalan, Fransiyaning sud tizimi haqida gapirganda, uning umumiy sudlar tizimiga boshchilik qiluvchi Kassatsion sud mamlakatning eng qadimiy va nufuzli davlat muassasalaridan biri hisoblanadi. Prezidentlik hokimiyatining kuchayishi, sud-prokuratura organlarining to‘liq tarzda prezidentga bo‘ysunishi, maxsus tribunallar va Davlat xavfsizligi sudining tashkil etilishi, shuningdek, sudlar va tribunallarning siyosiy jinoyatlar bilan bog‘liq ishlarga bo‘lgan vakolat doirasini kengaytirishi – bularning barchasi zamonaviy Fransiyaning sud tizimiga xos o‘ziga xos jihatlardir. Sudlar ikki asosiy guruhga, ya‘ni umumiy va maxsus sudlarga bo‘linadi. Umumiy sudlar tizimida esa birinchi instansiya sudlari, apellyatsiya sudlari va kassatsiya sudlari alohida ajratiladi.

Bu tajribalar, albatta, O‘zbekistonning sud-huquq tizimini yanada mustahkamlash va takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Sudyalik lavozimida faoliyat yuritish har jihatdan mas'uliyat, fidoyilikni talab etishi hammamizga yaxshi ma'lum. Shuning uchun, qonunchilikka muvofiq, ushbu lavozimlarga nomzodlarni saralash va tayinlashning yangi tartib-taomillari joriy etildi. Xususan, sudya lavozimida bo‘lishning dastlabki besh yillik muddati, keyin esa o‘n yillik muddat, oxir-oqibat esa muddatsiz davr belgilandi⁷.

Sudya lavozimiga tayinlash tartibi sudyadan o‘z zimmasidagi vazifani namunali va vijdonan bajarishni talab etadi. Bunda, bir tomondan, lavozimga keyingi muddatga qayta saylanish yoki tayinlanish, ikkinchi tomondan esa, o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli ado etgach, keyinchalik o‘n yilga va hatto muddatsiz davrga saylanish yoki tayinlanish uchun rag‘batlantiruvchi qoida sifatida xizmat qilmoqda.

⁷ Sud va huquqni muhofa qiluvchi organlar darslik. Toshkent 2020.

Albatta, salohiyatli va har tomonlama malakali sud kadrlarining shakllanishi, odil sudlov sifatini oshirishga, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan muhim tadbirlardan biri amalga oshirilgani diqqatga sazovor. Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tayinlashda ochiq, oshkora va muqobil tanlov tizimini yaratish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida, sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlashga ko'maklashadigan Sudyalar Oliy Kengashi tashkil etilgani bunaqangi islohotlarning yorqin misolidir⁸.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan o'zgarishlar sud-huquq tizimining demokratik tamoyillarini mustahkamlash va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan. Bugungi kunning yuqori rivojlanish sur'ati har bir davlatdan huquqiy tizimni yangilash va optimallashtirish borasida qat'iy choralarni talab qilmoqda. Agar davlat ushbu jarayondan ortda qolsa, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda qoloqlik yuzaga kelishi muqarrar. Sud-huquq tizimidagi islohotlar davlat boshqaruvining shaffofligi va samaradorligini oshiradi. Masalan, sudlarning mustaqilligi ta'minlangan hollarda korrupsiya xavfi kamayib, fuqarolar orasida adolatga bo'lgan ishonch ortadi. Niderlandiya va Belgiya tajribalarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu mamlakatlarda sud tizimining mustaqilligi qonun ustuvorligini kuchaytirib, iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Innovatsion yondashuvlar har bir davlatning global miqyosda muvaffaqiyatli raqobatlashishiga xizmat qiladi. Masalan, Estoniyada elektron sud tizimi joriy etilishi sud jarayonlarini soddalashtirib, fuqarolar uchun yanada qulay bo'ldi. Bu esa Estoniyani zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalangan yetakchi davlatlardan biriga aylantirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

⁸ Inagamova M.M. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyada qonun ustuvorligini ta'minlash va mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirishning tashkiliy-huquqiy masalalari (tahliliy-statistik ma'lumotlar asosida). Multidisciplinary Scientific Journal.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Konstitutsiyasining 27-yilligi tadbiri nutqidan.
2. Sud va huquqni muhofa qiluvchi organlar darslik. Toshkent 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 y., 38-son, 433-modda.
4. Inagamova M.M O‘zbekiston Respublikasi yangi konstitutsiyasida ayol huquqlari himoyasining ayrim jihatlari // yangi O‘zbekistonning yangi konstitutiya: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami / O‘zbekiston Respublikasi IIB malaka oshirish instituti, 2023 yil.
5. Inagamova M.M. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyada qonun ustuvorligini ta‘minlash va mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirishning tashkiliy–huquqiy masalalari (tahliliy–statistik ma’lumotlar asosida). Multidisciplinary Scientific Journal.
6. O‘zbekiston Respublikasining Yangi taxrirdagi Konstitutsiyasi “Adolat”–2023
7. <https://www.gazeta.uz/oz/2016/10/21/sud>
8. <http://litlife.club/br/?b=263462&p=3>.